Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650
Gapparova Mastona Safaraliyevna

Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi

Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra

Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi

Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li

Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672
Usmonov Umid Allayorivich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna

Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681
Ergashev Nozim Nabiyevich

Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi

Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687
Karimova Charos Abduhalim qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi

"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich

Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li

Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna

Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718
Berdiyeva Malika

Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari 731
Nazarova Mohigul Akmalovna

Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar 736
Arabova Muxiba Bazarovna

Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств 740
Хомидова Камола

Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века .. 744
Бекназаров Собиржон

Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni 748
Sharifov Shoxjaxon To'lqinjon o'g'li

Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari 752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi

O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi .. 759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich

Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане .. 764
Мусаева Елена Казимовна

Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi 767
Sh. L. Rahmonova



O'QUVCHILARDA IJTIMOIY TARMOQLARGA QARAMLIKNING SHAKLLANISHI VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI

UDK-316.6

Gapparova Mastona Safaraliyevna
IYI Universiteti Pedagogika va psixologiya va umumta'lim fanlar kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0008-0309-8791

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta maktab o'quvchilari – o'smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. O'smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotiga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlar aniqlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar uchun joziba-dorligini belgilovchi omillar hamda addiktiv xulq-atvor shakllanishining asosiy sabablari ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, o'smir yoshidagi maktab o'quvchilarida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning oldini olish zarurligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, addiktiv xulq-atvor, o'smirlar, shaxsning psixologik xususiyatlari.

Abstract: This article examines the problems of social network addiction among adolescent secondary school students. The psychological and communicative characteristics of adolescents' interaction in social networks are analyzed. Based on the conducted research, the author identifies the factors that determine the attractiveness of social networks for adolescents, as well as the main causes of the formation of addictive behavior. The necessity of preventing social network addiction among adolescent students is scientifically substantiated.

Key words: social networks, social network addiction, addictive behavior, adolescents, psychological characteristics of personality.

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы формирования зависимости от социальных сетей у школьников подросткового возраста. Проанализированы психологические и коммуникативные особенности общения подростков в социальных сетях. На основе проведённого исследования автором выделены факторы привлекательности социальных сетей для подростков, а также основные причины формирования аддиктивного поведения. Обоснована необходимость профилактики зависимости от социальных сетей среди школьников подросткового возраста.

Ключевые слова: социальные сети, зависимость от социальных сетей, аддиктивное поведение, подростки, психологические особенности личности.

KIRISH

Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab har o'nta o'smirdan biri ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlariga berilish oqibatida ruhiy muammolarga duch kelmoqda. So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan qiziqish kuchayib, o'smirlar orasida ulardan foydalanish 2018–yilda 7 % dan 2022–yilda 11 % gacha oshgani qayd etilgan. Shuningdek, yirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishtirok etgan bolalarning 11 % ida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik belgilari kuzatiladi (qizlarda bu ko'rsatkich 13 %, o'g'il bolalarda esa 9 %). Ushbu raqamlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiy salomatligiga ta'siri bo'yicha jiddiy tashvishlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kun.uz xabariga ko'ra, JSST hisobotida ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda videoo'yinlarga ham haddan ortiq berilish yoshlar o'rtasida keng tarqalganligi ta'kidlangan. Bunday sharoitda "internet olami" o'smirlarni real hayotiy majburiyatlardan chetlashtirib, diqqat va o'zini nazorat qilish mexanizmlarining susayishiga olib keladi. Shu sababli, kirishda ta'kidlanganidek, bir joyda 2–3 soatdan ortiq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan yoshlar bilan bog'liq xavotirlar tobora ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘quvchilar shaxsiyati va xulq-atvoriga ta’siri masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida keng o‘rganilgan. Babaeva, Voyskunskiy va Smyslova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Internet muhitining shaxs rivojlanishiga ta’siri, xususan, virtual muloqotning real ijtimoiy munosabatlarni siqib chiqarishi, emotsional holat va identifikatsiya jarayonlariga salbiy ta’siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Mualliflar Internetdan nazoratsiz foydalanish shaxsda bog‘liqlik, yolg‘izlik va ijtimoiy begonalashuv holatlarini kuchaytirishini ta’kidlaydilar.

Bolalar va o‘smirlar auditoriyasi uchun ijtimoiy tarmoqlarning xavflari Godik tadqiqotlarida alohida ko‘rsatib berilgan. Uning fikricha, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar yoshlarning axborotni tanqidiy qabul qilish ko‘nikmalarini susaytirishi, psixologik barqarorlikka putur yetkazishi mumkin. Shuningdek, Gulevich tomonidan yoritilgan muloqot psixologiyasi doirasida ijtimoiy tarmoqlardagi yuzaki muloqot shakllari real empatiya, faol tinglash va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelishi qayd etilgan.

Internetga qaramlik muammosining oldini olish masalalari Drepa tadqiqotlarida psixologik-profilaktik yondashuvlar orqali asoslab berilgan. Muallif ta’lim muassasalarida tizimli tushuntirish ishlari, psixologik treninglar va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. Zaretskaya esa kompyuter va Internetga qaramlikka yondashuvlarni tahlil qilib, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni alohida psixologik muammo sifatida baholaydi va uni 2017-yilga kelib pedagogik-amaliy muammo darajasiga chiqqanligini asoslaydi. Ushbu tadqiqotlar o‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarbligini ilmiy jihatdan tasdiqlab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishini aniqlash va uning dolzarb muammolarini baholash maqsadida kompleks empirik yondashuv qo‘llanildi. Ma’lumotlar umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan anonim so‘rovnomalar, psixologik testlar hamda yarim tuzilgan suhbatlar orqali yig‘ildi. So‘rovnomalar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish chastotasi, maqsadi va davomiyligini aniqlashga yo‘naltirildi, testlar esa qaramlik darajasi va emotsional holat ko‘rsatkichlarini baholash imkonini berdi. Shuningdek, maktab psixologlari bilan hamkorlikda kuzatuv usuli orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va muloqot xususiyatlari tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistik va mantiqiy tahlil usullari asosida umumlashtirilib, qaramlik belgilari bilan o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy holati o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tarmoqlar kishilarni, avvalo, mukofotlash tizimi orqali jalb qiladi. Do‘stlardan kelgan “like”lar va ijobiy fikrlar miyaning zavq markazlarini faollashtirib, dopamin ajralishini rag‘batlantiradi. Bu esa insonni yana shu hissiy holatni qayta boshdan kechirish uchun ijtimoiy tarmoqlarga qaytishga undaydi. Ikkinchi sabab – axborotni tez va xilma-xil qabul qilish imkoniyatidir. Internet va raqamli vositalar yordamida har qanday axborotni istalgan vaqtda tez topish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa yangiliklar, maqolalar, video va musiqa ketma-ketligidan iborat yangiliklar lentasi mavjud bo‘lib, miya ushbu tezkor ritmga moslashib qoladi. Bu jarayon oddiy qidiruv tizimlariga nisbatan kam energiya talab etadi: foydalanuvchi qidiruv so‘rovlarini qayta-qayta kiritmaydi, balki yangiliklar lentasini ochib, xohlagan kontentni tomosha qiladi. Uchinchi sabab – real hayotda o‘ziga ishonchi past bo‘lgan shaxslarning onlayn muhitda o‘zini boshqacha tarzda namoyon etish imkoniyatidir. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘zini boshqalar bilan doimiy va mukammal tarzda solishtirish yoshlarning o‘zini baholash darajasini pasaytiradi. Masalan, mukammal tana qiyofasi aks etgan Instagram tasvirlari o‘smir qizlarda o‘z-o‘zini baholashning pasayishiga olib keladi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni o‘ziga xos zaif tomonlarini unutib, virtual muhitte o‘zini “eng zo‘r” inson sifatida ko‘rsatishga undaydi.

Avvalo, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o‘tkazish diqqat yetishmovchiligi (e’tibor buzilishi)ga olib keladi. Buning asosiy sababi – doimiy almashinib turadigan qisqa kontent va bildirishnomalarning miya faoliyatidagi diqqatni jamlash mexanizmlarini zaiflashtirishidir. NamSPIman tadqiqotiga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardagi uzluksiz bildirishnomalar va o‘zgaruvchan kontent e’tiborni taqsimlangan holatda shakllantirib, bir masalaga uzoq vaqt davomida e’tibor qaratish qobiliyatini pasaytiradi. Shuningdek, Oksford va Harvard universitetlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan haddan ziyod foydalanish miya tarkibidagi kulrang modda hajmining kamayishiga olib kelib, xotira va uzoq muddatli e’tibor pasayishiga sabab bo‘ladi. 2004–yilda odamlar bir vazifaga o‘rtacha 2,5 daqiqa e’tibor qaratgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich 50 soniyadan kamni tashkil etmoqda. Natijada, uzluksiz almashib turadigan kontent e’tiborni chalg‘itishga o‘rgatadi va o‘quv hamda tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ikkinchi muhim muammo – ruhiy salomatlikning buzilishidir. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt davomida bo‘lish va ruhiy tushkunlik hamda xavotir alomatlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Masalan, JAMA Pediatrics jurnalida e’lon qilingan tahlillarga ko‘ra, kuniga 3 soat va undan ortiq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi o‘smirlar orasida depressiya va o‘zini past baholash xavfi ancha yuqori ekanligi aniqlangan. Buyuk Britaniyada 14 yoshli 11 mingga yaqin bolalar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qizlar orasida ijtimoiy tarmoqlardagi faollik yuqori bo‘lgan hollarda depressiya alomatlari ko‘proq kuzatilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekani aniqlangan. Mutaxassislar fikricha, ayniqsa Instagram va Snapchat kabi vizual platformalar o‘z tanasi va hayotidan norozilik hissini kuchaytiradi. Bu esa uyqu sifatining yomonlashishiga, xavotir va depressiya darajasining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, zo‘ravonlikning bir ko‘rinishi bo‘lgan kiberbulling ham ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalib, bolalarda xavotir, tushkunlik va posttravmatik stressga o‘xshash alomatlar paydo bo‘lishi xavfini oshiradi.

Uchinchi jihat – o‘zini past baholash va ijtimoiy izolyatsiyadir. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt davomida foydalanish aslida yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi. Masalan, internet salomatligini o‘rganayotgan tadqiqotchilar aniqlashicha, kuniga 2 soatdan ortiq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadigan yoshlar kam foydalanadigan tengdoshlarga nisbatan o‘zini 2–3 baravar ko‘proq yakkalangan holda his qiladi. Meta (Facebook) kompaniyasining ichki tadqiqotida ham ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq xavotirli holatlar aniqlangan: ovqatlanish tartibining buzilishidan aziyat chekadigan o‘smir qizlarning 17 % ida Instagramdan foydalanish natijasida ahvol yomonlashgani, 14 % ida esa o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlar kuchaygani qayd etilgan. Shunga o‘xshash xavotirlar AQSH Bosh shifokorining 2023–yildagi hisobotida ham keltirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy tarmoqlarning bolalar va o‘smirlar ruhiy salomatligiga jiddiy tahdid solayotgani ta’kidlangan.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yoshlarning xulq-atvorida ham muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda real hayotga qaraganda jasoratliroq bo‘lib, yuzma-yuz aytish qiyin bo‘lgan fikrlarni onlayn muhitda bemalol ifoda etishga moyil bo‘ladilar. Ayniqsa, Instagram orqali to‘plangan “like”lar insonni doimo o‘zini boshqalar bilan solishtirishga undab, obro‘ va e’tiborni oshirish maqsadida haddan tashqari, ayrim hollarda esa ekstremal xatti-harakatlarga borishga majbur etishi mumkin. Natijada, yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi susayib, qoniqmaslik hissi kuchayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar axborot almashinuvi va muloqotning qulay vositasi bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, ulardan me’yoridan ortiq foydalanishning salbiy oqibatlari ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Diqqatni bir nuqtaga jamlash qobiliyatining pasayishi, keng ko‘lamli axborot oqimiga miyaning o‘ziga xos moslashuvi, doimiy stress va tushkunlik holatlari ijtimoiy tarmoqlar bilan tez-tez muloqot qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, yoshlar orasida “FOMO” – muhim narsani o‘tkazib yuborishdan qo‘rqish hissi – kuchayib bormoqda, chunki doimiy yangilanishlar ularni “hamma narsa boshqalar hayotida sodir bo‘layotgandek” tuyulishiga olib keladi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan unumli va me’yorida foydalanishni shakllantirish hozirgi jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish nafaqat xulq-atvor darajasida, balki o‘quvchilarning kognitiv (bilish jarayonlari) hamda emotsional holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kuchaygani sayin, ularning diqqati tarqoqlashadi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi pasayadi va o‘z-o‘zini boshqarish darajasi susayadi.

Diqqatning pasayishi ijtimoiy tarmoqlarning tezkor almashinuvga asoslanganligi bilan izohlanadi, natijada o‘quvchilarda chuqur fikrlash va uzoq vaqt davomida bir vazifaga jamlanish qobiliyati sustlashadi. Xotira faoliyatining zaiflashuvi esa doimiy o‘tkinchi axborot oqimiga moslashgan ongda barqaror bilimlarni eslab qolish jarayonining qiyinlashuvi bilan bog‘liq. Tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan intensiv foydalanadigan o‘quvchilarda o‘qish samaradorligi 15–20 % ga past bo‘ladi. Shuningdek, “doimiy onlayn bo‘lish” ehtiyoji o‘quvchilarda ichki tashvish va stress holatlarini kuchaytiradi. Boshqalar tomonidan bildirilgan “like”lar va “izohlar”ga haddan ziyod bog‘liqlik shaxsiy qiymatni ijtimoiy bahoga qaram qilib qo‘yadi. Paradoks shundaki, onlayn muloqotlar ko‘paygan sari haqiqiy ijtimoiy munosabatlar kamayib, yolg‘izlik hissi ortadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal obrazlar bilan doimiy solishtirish real hayotdan chekinish va jamoaviy munosabatlarda qiyinchiliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Internetda erkin muloqot qiladigan o‘quvchi real hayotda esa uyalchan yoki ijtimoiy qo‘rquvga moyil bo‘lib qolishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda vaqtni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarga ajratilgan vaqtni oldindan rejalashtirish va aniq cheklovlarni belgilash zarur. Masalan, kun davomida ijtimoiy tarmoqlarda sarflanadigan vaqtni aniqlash, tungi soatlarda esa telefonni boshqa xonada zaryadlash tavsiya etiladi. Bunday chora-tadbirlar e’tiborni internetdan chalg‘itib, uyqu sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy muloqotni kuchaytirish ham muhim omillardan biridir. Onlayn muloqot o‘rniga shaxsiy uchrashuvlarni ko‘paytirish, do‘stlar va oila a’zolari bilan yuzma-yuz muloqot qilish ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. O‘zbekistonlik va xorijlik mutaxassislar tavsiyalariga ko‘ra, do‘stlar bilan qo‘shma tadbirlarda ishtirok etish ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytirishga yordam beradi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Kitob o‘qish, sport bilan shug‘ullanish, ijodiy faoliyatlar qisqa ko‘ngilochar kontentga muqobil bo‘lib, stressni kamaytiradi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni muvozanatlashtiradi. Masalan, qisqa videolar o‘rniga film tomosha qilish yoki ochiq havoda sayr qilish ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaviy media rejasini ishlab chiqish ham samarali choralardan biridir. Oila a’zolari birgalikda onlayn va oflayn vaqt muvozanatini belgilab, telefon va kompyuterlardan foydalanish qoidalarini kelishib olishlari lozim. Masalan, uxlash vaqtida barcha elektron qurilmalarni boshqa xonada zaryadlash oddiy, ammo samarali usul hisoblanadi.

Ushbu tavsiyalarni hayotga tatbiq etish yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan salbiy qaramligini kamaytirishga xizmat qiladi. Mutaxassislar ta’kidlashicha, tarmoqlardan foydalanish vaqti va sifatini nazorat qilish, shuningdek, tabiiy ijtimoiy muhitda faoliyatni rag‘batlantirish ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning oldini olishda samarali hisoblanadi.

O‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlardan sog‘lom foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Buning uchun kundalik onlayn vaqt bo‘yicha cheklovlar joriy etish, dars jarayonida smartfonlardan foydalanish tartibini belgilash va axborotni filtrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar o‘quvchilarda mas’uliyatli raqamli xulq-atvorni shakllantiradi.

Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Maktab psixologlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik darajasini aniqlovchi testlar (CIAS, IAT, SAS-SV)dan foydalanish, xavf guruhidagi o‘quvchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazish va emotsional barqarorlik hamda stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish tavsiya etiladi. Bu o‘quvchilarning psixologik himoya mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar tashkil etish zarur. Tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning 60–70 % omili oilaviy nazoratning sustligi bilan bog‘liq. Shu sababli ota-onalar uchun “Raqamli xavfsizlik”, “Farzandni onlayn baholashdan himoya qilish” mavzularida seminarlar o‘tkazish, oilada telefon va internetdan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish hamda nazorat dasturlaridan foydalanishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish qaramlikning oldini olishda yetakchi omillardan biridir. Maktablarda sport to‘garaklari, ijodiy studiyalar, fan klublari va ijtimoiy loyihalar faoliyatini kengaytirish tavsiya etiladi. Bu o‘quvchilarning e’tiborini virtual muhitdan real faoliyatga yo‘naltirish imkonini beradi.

Ta’lim jarayoniga media savodxonlikni kiritish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik mashg‘ulotlari o‘quvchilarda soxta axborotni aniqlash, algoritmlarning ta’sirini tushunish va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularni turli manipulyatsiyalarga beriluvchanlikdan himoya qiladi.

Maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali oilaviy muammolarga o‘z vaqtida aralashish, xavf guruhidagi o‘quvchilarni nazoratga olish hamda sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkil etish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha profilaktik monitoring olib borish, o‘quvchilar orasida yarim yillik statistik tahlillar o‘tkazish, qaramlik darajasi dinamikasini baholash va profilaktika dasturlarini muntazam yangilab borish tavsiya etiladi. Monitoring natijalari asosida maktab psixologi va pedagogik jamoa aniq va samarali ishlash strategiyasini ishlab chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Babaeva Yu.D., Voyskunskiy A.E., Smyslova O.V. Internet: shaxsiyatga ta’siri // Internetdagi gumanitar tadqiqotlar / tahr. A.E. Voyskunskiy. – M.: Mojaysk–Terra, 2000. – 11–39-betlar.
2. Godik Yu.O. Bolalar va o‘smirlar uchun tahdidlar va xavfsizlik xatarlari ommaviy axborot vositalarida // Mediascope. – 2011. – № 2. – 32–39-betlar.
3. Gulevich O.A. Muloqot psixologiyasi. – M.: Moskva psixologiya va ijtimoiy instituti, 2008. – 384 b.
4. Drepa M.I. Talabalar orasida internetga qaramlikning psixologik oldini olish: referat. dis. … ped. fanlari nomzodi. – Pyatigorsk, 2010. – 24 b.
5. Zaretskaya O.V. Kompyuter va Internetga qaramlik: muammoga yondashuvlarni tahlil qilish va tizimlashtirish // Psixologiya: fan va ta’lim. – 2017. – 9-jild, № 2. – 145–165-betlar.
6. https://doi.org/10.17759/psyedu.2017090213

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.